

Tojiboyeva Munisa

O'qish joyi: Qoraqalpoq Davlat Universiteti Jurnalistika fakulteti,

1-kurs talabasi

O'quvchi:

E-mail pochta: [munisxontajiboyeva@22gmail.com](mailto:munisxontajiboyeva@22gmail.com)

Telefon raqami: +9989070236505

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jurnalistika rivojlanishi uchun matbuot nazariyalarining o'rni hamda dunyo davlatlari o'rtasida siyosiy tutumlar va ularning bir-bitiga chambarchas bog'liqliklari haqida gap ketadi. Ya'ni hozirgi kunda matbuotning to'rtta nazariyasi, xususan, *Avtoritar nazariya, Libertarian nazariya, Ijtimoy mas'uliyat nazariyasi, Sovet totalitar nazariyasi* kabilar o'rin tutadi. Bu nazariyalarning har birining o'ziga xos xususiyatlar hamda mas'uliyati, asosan, muammoni muhokamaga olib chiqishdan iborat hamda o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani beqamiko'st va sidqidildan bajarishi, o'ziga berilgan haq va huquqlardan to'laqonli foydalana olishlari mumkin ekanligi mana shu to'rtta nazariyada ko'rsatib o'tilgan. Shu o'rinda OAV jurnalistikasi va xalq jurnalistikasi o'rtasidagi farqlar hamda ular foydalana oladigan imkoniyatlar haqida ham so'z ochilgan.

**Kalit so'zlar:** Avtoritar nazariya, Libertarian nazariya, Ijtimoy mas'uliyat nazariyasi, Sovet totalitar nazariyasi, Tezkorlik, aniqlik, OAV

Dunyoda davlatlar ko'p - siyosiy tutumlari ham turlicha, iqtisodiy asoslarida ham farq bor. XX asrda ularning ikki turi – kapitalistik va sotsialistik tuzumlar bir biri bilan raqobatlashdi. Kapitalizm bozor qoidalari bilan faoliyat yuritadigan demokratik asos sifatida olgan bo'lsa, sotsializm ijtimoiy tenglik g'oyasini amalga oshirish uchun totalitarizm yo'lini tanladi. Ularning farqi-yu o'ziga xosliklari haqida tom-tom kitoblar bitilgan. Tadqiqotimizga kerakli jihati shuki, bu ikki qutbning matbuoti ham o'z jamiyati talablaridan kelib chiqqanligidir. Endilikda eski davr sotsializmining siyosiy-iqtisodiy g'oyalari bilan tarbiyalangan jurnalistika yangi demokratik jarayon, xususan, so'z erkinligi foydalana boshladi. Iqtisodiy o'zgarishlarga olib keladigan bilimlarni qo'llashga o'z ijtimoiy qiziqishini qildi.

Birinchi sabab - O'zbekistonda matbuot nazariyasining mukammal emasligi. Fikrimizni asoslash maqsadida demokratik qadriyatlarga tayanadigan dunyo mamlakatlari tajribasiga murojaat qilamiz. Avvalo, G'arb olimlari, bugungi kunda ularning aksar fikrlarini qabul qila boshlagan Rossiya, Ukraina, Boltiqbo'yi mamlakatlari olimlari ham dunyo jurnalistikasini to'rt asosga, boshqacha aytganda to'rt nazariyaga ajratmoqdalar. Bu bo'linish ular orasidagi farqlar Fred S.Sibert, Uilbur Shramm, Teodor Piterson muallifligida chop etilgan "Matbuotning to'rt nazariyasi" kitobida aks etgan.

AQSHning ikk kata universitetlari olimlaridan iborat Komissiya juda katta mablag' evaziga "Ozod va mas'uliyatli matbuot. Ommaviy kommunikatsiya bo'yicha umumiy ma'ruza: gazetalar, radio, kino, jurnallar va kitoblar" nomli tadqiqot cho etdilar. Yuqorida nomi keltirilgan kitob ana shu izlanishlar natijasidir. Mualliflar matbuot nazariyasini

avtoritar, libertarian, ijtimoiy mas'uliyat va sovet totalitar nazariyasiga bo'ladilar. Ularning qisqacha mazmuni quyidagicha:

**Avtoritar nazariya** XVI-XVII asrlarda Angliyada keng tarqalgan va hanuzgacha joriy etilmoqda. Qirol, uning hukumati yoki ikkala hokimiyatning mutlak hukmronligi uning asosi hisoblanadi. Amaldagi hukumtni qo'llab-quvvatlash va uning siyosatini yurgizish hamda davlatga xizmat qilish mazkur nazariyaning bosh maqsadi hisoblanadi. Qirolning patenti va shu kabi ruxsatnoma olgan har kim OAVdan foydalanish huquqiga ega. Hukumat patentlari, gildiyalar, ba'zan senzura orqali nazorat qilinadi. Siyosiy mashina va amaldorlarni tanqid qilish taqiqlangan. Mulk turi ijtimoiy yoki xususiy bo'lishi mumkin. OAV hukumat mulki bo'lishi shart emas, lekin davlat siyosatini yurgizishga xizmat qiladi. Boshqa nazariyalardan sezilarli farqi shunda.

**Libertarian nazariya** 1688 yildan keyin Angliyada va AQSHda qabul qilingan. Milton, Lokk Millning ishlari va ratsionalizm hamda tabiiy huquqlarning umumiy falasafasi asosida ishlab chiqilgan. Axborot bersh, ko'ngil yozish, pul topish asosan haqiqatni topishga va hukumatni nazorat qilishga yordamlashish uning bosh masalasidir. Mablrag'i bo'lgan har bir kishi OAV tashkil etish huquqiga ega. "G'oyalarning ozod bozori"da "haqiqatga qaytish jarayoni" va sudlar vositasida nazorat qilinadi. Tuxmat, axloqsizlik, salbiy xatti-harakat, harbiy vaziyatda hukumatga qarshi targ'ibot taqiqlanadi. Bunda mulk turi, asosan, xususiydir. Boshqa nazariyalardan hukumatni nazorat qilish va jamiyatning boshqa ehtiyojlarini qondirish vositasi ekanligi bilan farqlanadi.

**Ijtimoiy mas'uliyat nazariyasi** XX asrda AQSHda boshlangan. Nazariyaning asosi matbuot va amaldagi jurnalistlar ozodligi komissiyasi, OAVning axloq kodekslari hisoblanadi. Bosh maqsad axborot berish, ko'ngil yozish, pul topish, asosan, muammoni muhokamaga olib chiqishdan iborat. Aytadigan gapi bor har bir kishi OAVdan foydalanish huquqiga ega. Jamoatchilik fikri va iste'molchilar harakati, kasb axloqi yordamida OAV nazorat qilinadi. Inson huquqlari va hayotiy zarur ijtimoiy manfaatlarga jiddiy halaqit berish taqiqlanadi. Mulk turi esa agar hukumat jamiyat manfaatlarini ta'minlashni o'z qo'liga olishga majbur bo'lmasa, xususiydir. Boshqa nazariyalardan sezilarli farqlari: OAV ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi kerak, aks holda, ularni kimdir shunday bo'lishga majbur etishi lozim.

**Sovet totalitar nazariyasi** Sovet Ittifoqida, shuningdek, ayrim elementlari natsistlar va italiyaliklar tomonidan amaliyotga tadbiiq etilgan. Marks-Lelin-Stalin ta'limotining Gegel va XiX asr rus falsafasi bilan qorishmasi uning asosini tashkil etadi. Bosh maqsadi – sovet sotsialistik tuzumini, xususan, partiya diktaturasini qo'llab-quvvatlash, yutug'iga yordam berish, Partiyaning sodiq sinalgan har bir a'zosi OAVdan foydalanish huquqiga ega. Maxsus nazorat hamda hukumatning iqtisodiy yoki siyosiy harakatlari vositasida nazorat qilinadi. Partiya vazifalarini tanqid qilish taqiqlangan. Mulk turi – ijtimoiy. OAV davlatga qarshi ekanligi, davlatning qattiq nazorat qilinishi va uning quroli hisoblanishi bilan boshqa nazariyalardan farqlanadi. Endi O'zbekiston tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, vaqtli matbuotning bosshlanishi XIX asrning ikkinchi yarmi, milliy matbuotning boshlanishi XX asrning ilk yillariga tog'ri keladi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda Xalq jurnalistikasi juranlistikaning har qanday turlari bilan raqobatlasha oladigan darajaga chiqdi. Yana bir o'ziga xos jihati shundaki, xalq jurnalistlari

qonun asosida, jumladan "Axborot olish kafolatlari va erkinligi tog'risida"gi Qonunning 3-moddasi "Har bir fuqaroning axborot olish huquqi kafolatlanadi. Har kimning axborotni izlash, olish, tadqiq qilish uzatish va tarqatish huquqi davlat tomonidan himoya qilinadi". Tezkorlik har bir xalq jurnalistining asosiy ustunligi hisoblanadi. Olingan axborotni o'quvchilar auditoriyasiga o'sha zahotiyoyoq yetkazish imkoniyati mavjud unda. OAV esa uni qayta ishlashga vaqt sarflaydilar. Xalq jurnalisti fakt, video va suratlar yordamida rivojlangan texnologiyalar asosida aniq, erkin ranglarda ishonarli tarzda o'quvchilarga yetkzaib, **aniqlik** prinsipiga ham erishishi mumkin. Hatto mobil telefonlarda ham mavjud zamonaviy texnik dasturlar orqali tasvirlardagi chop etishga halaqit beradigan kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatiga ega. Izchillik ya'ni tarqatiladigan yangiliklarning izchilligi – bu ham jurnalistikaning sezilarli ustunligi hisoblanadi. Xalq jurnalisti ma'lim vaqt oralig'ida bir qator yangiliklarni e'lon qilishi mumkin. Bu kabi imkoniyat OAVda kamroq. OAV hodimi kabi vaqti yoki hududi cheklanmagan bo'ladi. Negaki, uning ish vaqti belgilanmagan, taxririya uning muharrir yo'q, demakki, dolzarb mavzu tanlash o'zining ixtiyorida. Maaterialini ham o'zi xohlagan tahririyaatga berish imkoniga ega. Bugungi jurnalistlar mahorat va imkonlari doirasida ishga kirishdilar, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ommaviy axborot vositalaridagi so'nggi yillardagi harakatlar, jamiyatda to'planib qolgan qator muammolarning, jumladan ishsizlik, tadbirkorlik ishlariga to'siqlar, qishloq hududlaridagi og'ir ahvol, qo'shni davlamlarga o'tib qaytishdagi qiyinchiliklar, korrupsiya va poraxo'rlikning oldini olishdagi masalalarning muhokamaga olib chiqilishi ha buning yaqqol dalilidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. [www.communicationtheory.org/agenda-setting-theory/](http://www.communicationtheory.org/agenda-setting-theory/)
2. Saidov H. Matbuot – milliy manfaatlar himoyachisi.
3. [www.media.ge/ru/portal/blogs/39075/](http://www.media.ge/ru/portal/blogs/39075/)
4. Do'stqorayev B O'zbekiston jurnalistikasi tarixi: darslik. – T.: G'afur g'ulom nomidagi nashriyat-matbaa uyi, 2009. 96-107- betlar.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, 18- fond, 1- ro'yxat, 8752-ish
6. Osmonov S. «Gazeta o'qimay ham yashash mumkin» // « o'zbekiston ovozi», 2019 yil 22 yanvar.